

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASH HAMDA UCHINCHI RENASANS BUNYODKORLARINI TARBİYALASHDA NURONIYLARNI TUTGAN O'RNI

Axmedov Zoir Raxmonovich,

*Jizzax viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Sh. Rashidov tumani bo'limiga
qarashli 49-maktab Yoshlar masalalari va ma'naviyat ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Mustaqillika erishganimizdan so'ng davlatimiz tomonidan nuroniylarga berilayotgan e'tabor hamda o'zbek davlatchiligi tajribasidan kelib chiqib, keksalar duosi albatta qabul bo'lajagiga ishonib, ularni hurmatini joyiga qo'yib, bugungi globallashuv davrida Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasida ularning hayotiy tajribasidan foydalanib, aytgan o'g'itlariga amal qilib jamiyat va davlat boshqaruvida ularning o'rnini oshib borishini ko'rsatish.

Kalit so'zlar: Nuroniy, Birinchi Prezidentimizni nuroniylarga e'tibori, Nuroniy jamg'armasi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan nuroniylarni ijtimoiy himoya qilishga oid chiqargan huquqiy hujjatlari, ota-ona haqida buyuklar hikmati, nuroniylar jamiyatimiz "Oltin fondi", Yangi O'zbekistonda nuroniylarga e'tibor, maktablarda nuroniylar soati.

ENSURING THE STABILITY OF THE SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF LIGHTENERS IN THE EDUCATION OF CREATORS OF THE THIRD RENAISSANCE

Akhmedov Zoir Rakhmonovich,

*Jizzakh Region Preschool and School Education Department Sh. Belongs to Rashidov district
department 49th school, deputy director for youth issues and spiritual affairs*

Abstract: Based on the importance that our country attaches to the intelligentsia after gaining independence, and on the experience of Uzbek statehood, we believe that the prayers of the elderly will certainly be accepted, and their respect will be restored in today's era of globalization. , their vital role in educating the youth in New Uzbekistan, using their experience and showing that by following their teachings they will transcend their place in society and government.

Key words: Nuroni, First President's attention to the Nurani, Nuroni fund, legal documents issued by the President Sh.M. Mirziyoyev regarding the social protection of the Nurani, wisdom of the great about parents, our Nurani society «Golden Fund», New Attention to intellectuals in Uzbekistan, intellectuals' hour in schools.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В УЗ- БЕКИСТАНЕ И РОЛЬ СВЕТИЛЬНИКОВ В ВОСПИТАНИИ ТВОРЦЕВ ТРЕТЬЕГО ВОЗ- РОЖДЕНИЯ

Ахмедов Зоир Рахмонович,

*Джизакский областной отдел дошкольного и школьного образования Принадлежит Ш.
Рашидовскому райотделу 49-й школы, заместитель директора по делам молодежи и духовным
делам*

Аннотация: Основываясь на том значении, которое наша страна придает интеллигенции после обретения независимости, и на опыте узбекской государственности, мы верим, что молитвы старейшин непременно будут приняты, а их уважение будет восстановлено в сегодняшнюю эпоху глобализации. , их жизненно важную роль в обучении молодежи в Новом Узбекистане, используя свой опыт и показывая, что, следуя их учениям, они превзойдут свое место в обществе и правительстве.

Ключевые слова: Нурони, внимание Первого Президента к Нурани, фонд Нурони, правовые документы, изданные Президентом Ш.М. Мирзиёева о социальной защите нурани, мудрости великих о родителях, нашем нуранийском обществе «Золотой фонд», Новом внимании к интеллигенции в Узбекистане, часе интеллигенции в школах.

Kirish. Jahonda inson huquqlari, erkinlari va manfaatlarini ta'minlash, demografik holatdan kelib chiqib, turli mintaqalardagi aholining ijtimoiy muxofaza qilish choralari kuchaytirish, global iqlim o'zgarishlari sharoitida zaruriy oziq-ovqat mahsulotlar taqsimotini hal etish, nisbatan ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan bolalar va keksalarni qo'llab-quvvatlash sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu dissertatsiya avvalo davlatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi ichki

siyosatining asosiy tamoyillari, ijtimoiy himoya masalalari hamda yurtimizning nuroniylarga bo'lgan e'tibor, borasidagi yondoshuvlari keng va har tomonlama yoritib berishga harakat qilingan. Tadqiqotda davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlarga hamda Vazirlar mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar asosiy mayoq bo'lib xizmat qiladi. Xususan, davlatimizda nuroniylarga bo'lgan munosabatlarni o'ziga xos xususiyatlari, mahallada, oilada yoshlar tarbiyasida ularning mehnatlari yuqori baholanib tahlili keltirilgan bo'lib, ularni roziligini olish, yurtimizga, baraka olib kelish hamda farzandlar tarbiyasida ularning ibratli o'g'itlari siyosiy jarayonlardagi eng faol harakatga keltiruvchi kuch sifatida ta'kidlanib kelinadi. Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasini Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir" kabi asarlari keksalarni ijtimoiy himoyalashning ilmiy tahliliga asos bo'lib xizmat qildi. Keksalarni qadrlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini yuqori baholash, an'analarni saqlab qolish va yangi avlodga etkazishdagi o'rnini qadimiy manbamiz "Avesto"da, O'rxun-Enasoy bitiklari, Firdavsiyning "SHohnoma", Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida, Kaykovusning "Qobusnoma" asarlarida yoritilgan. Yangi davrda jadid ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Fitrat asarlarida ham mazkur masalaga to'xtalib o'tilgan.

Keksalik masalasiga bag'ishlab, tarixiy manbalarda quyidagi jumlar keltiriladi. Jumladan, Kaykovus "Qobusnoma" asarida quyidagilarni yozadi: "Har kishi ota-ona (asli)ning yaxshiligini bilmasa, birovni yaxshiligiga baho berolmaydi. O'z farzanding seni hurmat qilishni istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki sen ota-onang haqiga nima ish qilsang, farzandlaring ham senga shunday ish qiladi".

Rizouddin ibn Faxriddin "Ilmi axloq" kitobida: "Naqadar baxt va martabalarga erishgan bo'lsangizda, ota-onalaringizni hech vaqt unutmangiz! Ularga itoatli bo'lib hurmat qilingiz! Nasihatlarini tinglab, rizoliklarini olingiz!" deya uqtirgan.

Birinchi Prezidentimizni alohida e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli yoshi ulug' insonlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, turmush darajasini yaxshilash inson manfaatlarini ustuvor bo'lgan davlatimiz siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olindi. XXI asr- intellektual qadryatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda yigit va qizlarni har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish yurtimizda muhim vazifa qilib belgilangan. Bugungi kunda milliy qadryatlar, urf-odatlar, udumlar va an'analar, milliy ma'naviyat arkonlariga qiziqishni, yoshlarimiz dunyoqarashida iymon-insoflilik, andishalilik, odoblilik, iffatlilik, mehr-oqibatlilik, sadoqatlilik, qilinayotgan har bir ish uchun mas'uliyatlilik singari yuksak insoniy fazilatlarini yanada shakllantirish dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu esa nuroniylarni yoshlar hayotida mavjud bo'layotgan echimga o'ta mas'uliyat bilan yondashishga, yoshlar o'rtasida mafkuraviy ishlar samaradorligini yanada oshirishga undaydi. Yoshlarni turli salbiy illatlardan himoya qilishning eng muhim yo'li ularni milliy g'oyamiz tamoyillari asosida tarbiyalashdir. Bu haqda Birinchi Prezidentimizning 2006 yil 25 avgustdagi 451-sonli "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" gi qarorida ta'kidlanganidek, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va axborot kurashlari yanada keskinlashib borayotgan hozirgi davrda yoshlarni keksa avlod jasorati, hayoti va faoliyati namunasi misolida turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimiz ongiga tevarak-atrofdan sodir etilayotgan voqealarga xushyor va ongli munosabatni shakllantirish, mamlakatimiz obodligi, xalqimiz tinch-osoyshta hayoti uchun mas'uliyat hissini yanada oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilishlari urush va mehnat faxriylarini yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarsi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan harxil zararli ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrashda muntazam ishtirok etishga chaqirgan. Nuroniylarni yosh avlod tarbiyasida jamiyat va davlat boshqaruvida o'rnini va rolini oshirish maqsadida, jumladan; O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi Samarqand viloyati bo'limi kengashi respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi va "Kamolot YOIH" Samarqand viloyati bo'limlari kengashi Qo'shma qarori qabul qilingan. Qarorda "Faxriylar mehri-barkamol avlodga" shiori ostida jamoatchilik harakati boshlanganligini ma'lum qilgan. Ushbu harakatda ko'zda tutilganidek keksa avlod vakillarining yoshlar o'rtasidagi o'rtasidagi chiqishlarida ularning jahgohlardagi va front ortidagi qahramonliklari, el-yurtga fidoiyligi va sadoqatini namuna sifatida ko'rsatgan holda asosiy e'tiborni yoshlarni ogohlilik va xushyorlikka davlat e'tish, turli diniy ekstremistik guruhlarining g'arazli maqsadlarini ochib tashlash, yoshlar qalbida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida erishilgan ulkan yutuqlar va islohatlarning tub mohiyatini tushuntirish, komil insonga xos fazilatlarini keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berilgan. "Faxriylar mehri-barkamol avlodga" jamoatchilik harakatida faol ishtirok etadigan urush va mehnat faxriylari o'zali istiqomat qiladigan turar-joylarda yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy mavzularda suhbatlar o'tkazib turishlari; giyohvandlik, ichkilikbozlik, jinoyatchilik va qonunbuzarliklarning oldini olishga; mahalla markazi, choyxona va to'y-ma'rakalarda yoshlarimiz qalbida o'z ota-onasiga, oila a'zolariga, tug'ilgan eriga nisbatan mehr tuyg'usini mustahkamlash maqsadida "Oilamuqaddas dargoh", "Vatan oiladan boshlanadi", "Sog'lom avlod-jamiyat boyligi", kabi mavzularda turli muloqotlar uyushtirilishi; ona va bolani ijtimoiy-tibbiy va ma'naviy muhofazasini ta'minlash maqsadida

“Balog`atga etmagan qizlarni turmushga uzatmaylik”, “Qarindoshga qiz bermang”, “Islom dini va irsiyat sofligi”, “Reproduktiv salomatlik-barkamol avlod mezoni” mavzularida ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarda qatnashganlar; “Sog`lom ona-sog`lom bola” harakatining mazmun mohiyatini keng ommalashtirish, barkamol avlodni shakllantirishda fuqarolarning tibbiy madaniyati darajasini va savodxonligini oshirishga ko`maklashganlar. Atoqli adibimiz Oybek yozganidek, “tuproq`ida oltin gullaydigan” O`zbekiston diyori azaldan betakror tabiati, o`zining zukko, fozil kishilari, qo`li gul hunarmandlari, olimu shoirlari bilan ma`lum va mashhur bo`lgan. Ana shu maskanda bir guruh avlodlar, ahil va inoq yashab, yoshu-qari, jamiki inson zoti e`zoz va qadr topib kelgan. Jumladan; bu haqda-“Inson qadrlangan yurtga Allohning rahmati yog`iladi” [1,3]-deydi, O`zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazarov. Hurmatli Prezidentimizning har bir nutqi va mahallalarda aholi bilan uchrashuvlarida aytgan so`zlarida eng oliy maqsad-odamlar o`z hayotlaridan bugun rozi bo`lib yashashlari lozimligi, mamlakatimizda o`tkazilayotgan islohatlarning barchasi ana shu maqsadning amaliy ro`yobi ekanligiga alohida urg`u beriladi. Jumladan, bu haqda Hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni keltiradi; “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta`minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zmonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko`rsatish, sifatli ta`lim, ijtimoiy himoya tizimi sog`lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”. [2,1]

2021 yil 6 noyabr kuni yangi saylangan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalari qo`shma majlisidagi ma`ruzasida “Keksa avlod vakillariga e`tibor va g`amxo`rlik ko`rsatish, ularni har tomonlama e`zozlash-xalqimizning azaliy qadryatidir. Ana shunday noyob fazilatni asrab-avaylash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash-barchamizning muqaddas burchimizdir” [3,2] deya ta`kidlab o`tilgandi. Eng asosiysi, barcha sohalarida shiddat bilan olib borilayotgan islohotlardan ko`zlangan ustuvor maqsad-xalqni rozi qilish, aholi farovonligini oshirish ekani haqiqat. Bugun yoshi ulug` insonlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlarga bo`lgan e`tibor va g`amxo`rlik har qachongidan ham yuqori bosqichga ko`tarilgani, har bir nuroniyning kundalik hayot tarzida o`z aksini topayotgani ayni haqiqat. Prezidentimizning shaxsiy tashabbusi bilan yoshi ulug` insonlarga ulug` insonlarga hurmat-ehtiram, izzat-ikrom ko`rsatish, nuroniylarni ijtimoiy himoya qilish, salomatliklarini saqlash, ular uchun barcha sharoit, imkoniyat va imtiyozlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, davlatimizda “keksalarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ularni e`zozlashga qaratilgan amaldagi 20 ga yaqin qonun hujjatining ijrosi izchil ta`minlanib kelinmoqda. Eng asosiysi, o`tgan besh yil ichida yoshi ulug`lar, imkoniyati cheklangan fuqarolar va yakka yolg`iz keksalarga ko`rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifati keskin yaxshilandi”. [4,1] Demak, yuqoridagi qabul qilingan qonunlardan ko`zlangan asosiy maqsad nuroniylarimizning jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy faolligini yanada oshirishda asqotmoqda.

“XX asrning 80-yillarigacha tug`ulganlarga havas qilaman. Nega deysizmi? Chunki:

- ular internetdan topilgan emas, haqiqiy do`stlar bilan o`ynab ulg`ayishdi;
- darslardan so`ng ko`chada o`ynash, telefon yoki komp`yuterga termulishmadi;
- chanqaganda qadoqlangan idishlardan emas, jo`mraklardan suv ichishdi;
- bitta suv idishdan to`rt kishi foydalansa ham, infektsiya yuqtirib olishmadi;
- har kuni osh eyishsa ham, semirib ketishmadi;
- poyabzalsiz o`ynashsa ham, oyoqlariga hech narsa qilmadi;
- ota-onalari ularning sog`ligidan xavotir olib parhez qildirmadi, vitamin ustiga vitamin, dori ustiga dori ichirmadi;
- o`yinchoqlarni o`z qo`llari bilan yasashdi, zavqlanib o`ynashdi;
- oilalari kambag`al bo`lsa ham, ular mehirsiz qolishmadi, halovatda yashashdi;
- tushgan suratlari oq-qora bo`lsa ham, xotiralari turfa rangli edi;
- turli texnikalari, qo`l telefonlari, internet yo`q, biroq ulfatlari rostakam, suhbtlari qaynoq qaynoq edi;
- do`stlarining uylariga istagan paytida borib, birga taomlanib ketaverishardi;
- hozirgi yoshlarning olamidan keskin farq qiladigan, boshqacha tuyg`ular, qrindoshlik aloqalari, o`zaro mehr-oqibat, silai rahmga yo`g`rilgandi, ularning hayoti;
- keksa avlodga, umuman, kattalarga hurmat saqlagan, ulug`larining nasihat va ko`rsatmaalarini dasturilamal bilgan avlod edi...” [5,4]

Nuroniylar Prezidentimiz olib borayotgan inson qadri ulug`lashga qaratilgan oqilona siyosat, ayniqsa o`zlariga ko`rsatilayotgan yuksak e`tibordan mamnun bo`lib, bugungi hayotlaridan rozi va minnatdor bo`lib, izchil amalga oshirayotgan tarixiy islohotlarni amalga oshirishda o`z hissalarini qo`shib kelmoqda. “Insonning qadri ulug`lashga barcha davrlarda va barcha baddiy, ilmiy hamda diniy manbalarda asosiy e`tibor berilgan. Shu jihatdan olganda O`zbekiston mustaqillikni qo`lga kiritganidan keyin bunga alohida e`tiborni qaratdi”. [6,2] O`zbek tilining izohli lug`atida “nuroniy” so`ziga shunday ta`rif berilgan: “yorqin, porloq, nurli, nurli; fayzli, istarasi issiq”. [7,1] Yana e`tirof etilishicha, bu kalom yuzidan nur yog`ilib turadigan, fayzli keksalarga nisbatan qo`llaniladi. So`nggi yillarda bir qator qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son “O`zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish

to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagi 237-son "Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi, 2020 yil 15 apreldagi 228-son "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021 yil 5 martdagi 122-son "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar respublikada keksalarni ijtimoiy himoyalash siyosati mazmun-mohiyatini o'rganishda muayyan darajada xizmat qiladi. Tariximiz guvoh, duogo'y keksalarni qadrlash ishlarimiz omad kaliti hisoblangan. Jumladan, "Sohibqiron har doim musulmon ruhoniylarining barcha namoyondalari bilan o'ta do'stona munosabatda bo'lgan. Bu unga otasidan o'tgan hislat edi. Padari buzurkvori Tarag'ay islomda taqvdor bo'lib, ko'p vaqtini darveshlar bilan o'tkazardi. Chig'atoy ulsining nufuzli beklaridan biri bo'lgan bu bahodir shayx Shamsiddin Kulolni o'ziga pir tutgandi. Sohobqironning ham bu pirga ixlosi juda kuchli bo'ldi". [8,31] Amir Temur bobimiz ulug' pirlar duosiga ishongan. Temur bobimiz piri murishidlar, ma'naviy ustozlarga o'z saroyining to'ridan joy bergan. U har vaqt o'zi ham shariat qonun-qoidalariga qat'iy amal qilgan. Jumladan, "tarixchi Ibn Arabshohning qayd etishicha, shayx Shamsiddin Kuloldan olgan duosini Sohobqiron doimo o'z muvaffaqiyatlarining eng birinchi sababi deb bilgan. Amir Temur pirlaridan biri, asli Makka shahridan bo'lgan Sayyid Baraka 1370 yilda Balx qal'asi egallanishidan oldin Temurning oldiga keladi. Ulug' shayx Temurga hokimiyat ramzi hisoblangan nog'or ava bayroq tutqazib, uning porloq kelajagidan bashorat qiladi. Bundan tashqari, Sayyid Baraka o'z duosi bilan Sohobqironning g'animlariga qarshi kurashda ham uni qo'llab-quvvatlaydi". [8,31] Masalan, Ibn Arabshohning ma'lumot berishicha, 1391 yilda o'rta asrlardagi eng yirik janglardan biri-Qunduzcha jangi oldidan Sayyid Baraka duo qilib, omad tilagani uchun Amir temur undan g'oyatda mamnun bo'lgan. 1391 yil 18 iyun-jang kuni erta tongda Sohobqiron qo'shini ko'z o'ngida otdan tushib, Allohdan madad tilab ikki rakat namoz o'qiydi. Har ikki tomomndan 500 mingga yaqin jangchi ishtirok etgan muhoraba Sohobqiron g'alabasi bilan yakunlanadi.

Birinchi Prezidentimiz o'zini "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida oila haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan- jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan -mamlakat barqarordir".[9,58] Demochimizki, ana shu jamiyat tayanchi bo'lgan mahalladagi nizoli oilalarni hayotini barqaror qilishda nuroniylarni ham hissasi katta. Mamlakatimizda keksalik va u bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarga jamiyat rivojlanishining muhim ijtimoiy masalasi sifatida qarab kelinmoqda. Yoshi ulug' insonlarga hurmat-ehlorom, mehr-oqibat ko'rsatish, ma'naviy hayotimiz va qadryatlarimizning ajralmas qismidir, ularga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor, yuksak ma'naviyat belgisidir. Buyuk bobimiz, she'riyat mulkingning sultoni Alisher navoiy aytganidek: "Ota-onalarni hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldiga boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang shu ikki odamning roziligini ol". [10,6-7] Bugungi Yangi O'zbekiston diyorida keksalarimizning hurmatini joyiga qo'yish,sermazmun hayoti va boy tajribasini keng targ'ib etish, ularning har biri davlat va jamiyat e'tiboridan chetda qolmasligi, o'zini yolg'iz his etmasligini uchun bor imkoniyatlarni ishga solishimiz ayni vaqti deb o'ylaymiz. So'zimizni quyidagi jumlar bilan yakunlaymiz "Keksalarni asrang-ularning duolari sizni asraydi" yoki bo'lmasa "Yo'ldoshing keksa bo'lsa, safaring bexatar bo'ladi". [10,18] Xulosa o'rniida, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgan, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgan globallashuv sharoitida milliy o'zlik va ma'naviy qadryatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib, yoshlar ongini egallashga bo'layotgan urinishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. Bunday tahlikali vaziyatdan, birinchi navbatda,yoshi ulug' insonlar ogoh va hushyor bo'lib, yosh avlodni to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Yangi O'zbekiston. Davr nafasi 2022 yil 29 yanvar, 20-son
- 2.Nuroniyy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta 2022 yil 2 fevral №5 (1117) Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
3. Nuroniyy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta 2022 yil 26 yanvar №4 (1116) Yurt ravnaqiga mas'ullik burchi.
4. Nuroniyy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta 2022 yil 19 yanvar №3 (1115).
5. Nuroniyy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. 2021 yil 27-Oktabr №-42 (1104) "XX asrda tug'ulganlar"
6. Jizzax haqiqati 2022-yil 16 aprel, Shanba. №31 (6284) Nurli manzillarni ko'zlagan g'oya Botir Uzoqov
7. Nuroniyy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta 2021-yil 13-Oktabr №40 (1102) Piru badavlatlar ulug'langan yurt yoxud mamlakat nuroniylarining ilk qurultoyi maqomidagi tadbir.
8. Mahalla gazetasi 2020 yil №18 1912-1915) Amir Temur Haj ziyoratiga borganmi?
9. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat", 2008 y
- 10.. O'zbekiston Respublikasi "Tasviriy oyna" ijodiy uyshmasi Keksalarni e'zozlab, duosini olaylik! Tavsiyalar "Extremum-Pres" Toshkent-2015